

## TA'MAGIRLIK- KASBGA, MIJOZGA, G'URURGA XIYONAT

SIDDICOVA FERUZAXON MUROTJONOVNA

Namangan Davlat Universiteti Tasviriy va amaliy bezak San'ati 2 kurs Magistratura talabasi"

Feruzaxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7347663>

Annotatsiya Ushbu maqolada ta'magirlilik g'ururga xiyonat kabi tushunchalar bilan kasbiy ma'naviyat haqida ilmiy asoslar keltirilib uning vazifalari va insонning ijtimoy hayotda tutgan o'rnini yoritilib o'tildi. Kasbdagi ta'magirlilik va xiyonat keng tushunib yetish orqali shaxsiy faoliyatda katta xalokatga yo'liga olib borishi mumkin ekanligi tushuntirildi

Tayanch so'zlar. Kasb, xiyonat , axloqiy qoidalar, ta'magirlilik, shaxsiy munosabat, mulohaza yuritish, manipulyatsiya.

**Аннотация** В данной статье выделены научные основы профессиональной духовности с такими понятиями, как высокомерие и предательство гордыни, ее задачи и место человека в общественной жизни. Объяснялось, что профессиональная жадность и предательство могут привести к большим разрушениям в личной деятельности через широкое понимание профессия, честность, технологии, личное отношение, нестандартность, потребности, разрушительные традиции

**Основные слова:** Профессия, предательство, правила морали, жадность, личное отношение, рассуждения, манипулирование.

**Annotation:** In this article, the scientific foundations of professional spirituality with concepts such as arrogance and betrayal of pride, its tasks and the place of a person in social life were highlighted. It was explained that professional greed and betrayal can lead to great destruction in personal activities through wide understanding. **Keywords:** Profession, betrayal, moral rules, greed, personal attitude, reasoning, manipulation.

**Keywords:** Profession, betrayal, moral rules, greed, personal attitude, reasoning, manipulation.

Kirish Fan va texnika rivojlanib, ijtimoiy mehnat taqsimoti yanada chuqurlashdi. Bu jarayonning uzluksiz davom etishi esa, o'z navbatida, har bir muayyan ijtimoiy funksiyani bajaradigan yangidan yangi faoliyat sohalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ularning sohiblari esa shunga ko'ra muayyan ijtimoiy burchlarni bajara boshlaganlar. Mazkur burch va majburiyatlar muayyan axloqiy qoidalar va xulq-atvor normalarida o'z aksini topdi. Kasb etikasi to'g'risida har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri bu maktab, kollej va litsey o'quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon

bo'lishidir. Motivlar o'rtasidagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo'ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo'lish obyektiv va qat'iy qarorni keltirib chiqaradi. Kasbiy etika bu har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o'rganadi va hayotga tatbiq etadi. Kasb-kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, umumiy hamda xususiy ko'rinishlarni o'zida aks ettiradi.

Ba'zan qalblarimiz quvonchga to'lib dunyoga sig'may ketadigan damlarimiz bo'ladi, ba'zida esa ko'nglimizni kimdir og'ritsa keng va bepayon olam mo'jaz yuragimizga sig'maydigan onlar ham bo'lib turadi.

Hayotda yana bir muhim narsa borki, bu ham bo'lsa har bir inson o'z hayoti va ish faoliyati davomida o'z imkoniyatlaridan qanchalik darajada foydalana olishidir.

Mutaxassislarning e'tirof qilishlaricha, kasbni to'g'ri tanlash, va unga mehr bilan yondashgan har bir xodim o'z faoliyatida ma'lum bir yutuqlarga erishar ekan. O'z kasbiga ijodiy yondashmagan va yomon xulq atvor va ta'magirlilik poraxo'rlik xiyonatkorlik kabi salbiy munosabatlar, shu ishni qilishim kerak ekan, uni bajarishim lozim degan dunyoqarash bilan ishlash hech qanday ijobiy samara bermasligi aniq.

Yurtimizda yashab mehnat qilayotgan har bir soha xodimidan o'z ishiga fidoiylik va halollik bilan munosabatda bo'lish talab qilinmoqda. Fidoiy bo'lмаган, befarqliк xiyonatkorlikka berilgan inson, mamlakat va xalq uchun o'ta xavfli hisoblanadi.

Halollik mehnat dunyosidagi eng muhim axloqiy vazifalardan biridir. Halol xodim o'z xo'jayiniga kompaniyaga nisbatan yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Aksincha tilyog'lamatlik ta'magirlilik kasbiga o'ziga xiyonat qilish esa kelajak faoliyatiga, kelak avlodiga zarar yetkazish bilan yakun topadi. Masalan, agar xodim xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa va hech kimga aytmaslikni tanlagan bo'lsa, uning rahbari xatolarni to'g'irlash uchun harakat qila olmaydi. Bundan tashqari, manipulyatsiya usullaridan foydalanish jiddiy axloqiy nosozlikdir va har qanday yo'l bilan undan qochish kerak. Professionalizm mas'uliyatlilikni, chuqur bilimdonlikni, tahliliy bilimga egalikni hamda ongli mulohaza yuritishni bildiradi. Biz foydalanuvchilarimiz ehtiyojlarini tushunish uchun ishlaymiz hamda statistik bilimlarimiz, ma'lumotlarimiz va tahlillarimizni jamiyat man'iyati uchun ishlatalamiz. Biz imkonqadar yuqori sifatli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga intilamiz hamda ma'lumotlar va usullaming ko'zlangan maqsadlarga mosligi uchun javobgarmiz.

Biz masalalarni xolisona muhokama qilish va muammolami hal qilishga o'z

hissamizni qo'shishga intilamiz hamda qonunga bo'y sunamiz va lozim darajadagi

statistika amaliyotiga to'sqinlik qiluvchi qonunlarni o'zgartirish ustida ishlaymiz, Bu esa salbiy xarakterdagi odatlarning inson faoliyatidagi qarshi keladigan natijani yaqqol ko'rsatib beradi

Adabiyotlar tahlili. Ko'rsatilgan ushbu jihatlar shaxs va kasb hamkorligida uchraydi va bu murakkab, dramatik jarayon sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bo'lib o'tadi. Ta'magirlik lavozim oshishi yoki shaxsiy foyda uchun xizmat qilgan holatda davomi doimiy bo'lmay tezlik fosh bo'ladigan salbiy harakter bo'lib ifodalaydi. Shaxsning kasbga bo'lgan moslashuvinda normativ bo'lman vaziyatlarni hal etishda psixologiya muhim ahamiyatga ega. Aynan u shaxs va kasb o'rtasida optimal munosabatlarni o'rnatishda yordam berishi, kishilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirishi lozim. Shaxs va kasblarga moslashuvning ko'p aspektli psixologik fundamentlari an'anaviy tarzda mehnat psixologiyasi tomonidan tadqiq etilgan. Ammo shaxsning to'liq kasbiy shakllanish jarayoni aniqlanmagan. XX asr bo'sag'asida paydo bo'lgan mehnat psixologiyasi kasbiy faoliyat turlarini, faoliyatning insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlariga bo'lgan talablarini, kasbiy qobiliyat, ko'nikmalarini o'rganadi. Bunda insonning o'zaro kasbiy tushunchalari halollik, xiyonat, kamtarlik, maqtanchoqlik, samimiylilik, tilyog'lomalik, ta'magirlik kabi ichki dunyosida o'zaro holatlari kurashib boradi.

Kasbiy etikada muhim vazifalaridan biri, mehnat sharoitlari, vositalari va mazmunini tahlil qilishdan iborat. Ishlab chiqarishdagi turli nuqsonlarni, layoqat va charchoqni diagnostika qilish orqali optimal ish tajribasini aniqlashga katta e'tibor beriladi. Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jihatidan o'zini topa olish uchun o'z ustida ishlashi va turli masalalarni hal qilish uchun bor kuchini sarflash, shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an'analarni o'zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko'rsatish.

Kasbiy jihatdan o'zini anglash

Insonning kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo'lgan jihatlarini mustaqil anglab olishi, shuningdek ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bajariladigan ishidan ma'no topishi muxim omil sanaladi.

Tahlillar va natijalar. Ta'lim-tarbiya jarayonida halollikning o'rni juda muhim, - deb gap boshladi bir o'qituvchi. - Yoshlarga bu go'zal fazilatning qadri, ahamiyatini tushuntirish uchun bor kuch va imkoniyatimiz bilan harakat qilamiz. Bir rivoyat eshitgandim. Bolasining ko'p asal yeishidan tashvishga

tushgan ota uni tabibga olib boradi. Kichkintoyning bu odati haqida eshitgan hakim otaga uni davolatish uchun qirq kundan keyin kelishini tayinlaydi. Nihoyat, belgilangan kun kelib, ota yana o'g'li bilan tabibning huzuriga shoshadi. U esa kichkintoyning boshini silab: «O'g'lim, bundan keyin asal yemang», - deydi va otasiga ketishi mumkinligini, endi bola bunday qilmasligini aytadi. Hayron bo'lganini yashira olmagan ota so'raydi: «Shu gapni o'sha biz kelgan birinchi kunning o'zidayoq aytib qo'ysangiz bo'lardi-ku?». Donishmand hakim esa jilmayib: «To'g'ri. Lekin o'sha kuni o'zim ham asal yegan edim. Shuning uchun bolaga aytgan nasihatim kor qilmasdi. Qirq kun asal yemadim. Endi bolangiz ham ko'p asal yeyishini bas qiladi», deydi. Donishmand bolani davolashning bunday usulini aytib, otani ham lol qoldirgan edi. To'g'rilikning mukofoti ulkan bo'lishi qadim ajdodlardan olimlarni keltirgan va isbotlagan ilmiy dalillar orqali ham ko'rsatib kelingan.

Biz o'qituvchilar ham, avvalo, o'zimizni tarbiyalab, keyin bu haqda o'quvchilarga gapirganimiz ma'qul. Nega gaplarimiz bolalarga ta'sir qilmayapti? Nima uchun farzandlarimizga halollik, olижаноблик haqida aytganlarimiz ertakday tuyulayapti? Chunki o'zimiz hozir ana shu asal yeb qo'ygan tabib ahvoldamiz, balki o'zimizda ham yomon odatlardan mavjud bo'lsa kerak. O'quvchilarga halollik haqida gapirishimiz uchun o'zimiz ham ma'naviy tayyorgarlik ko'rishimiz shart.

Xulosalar. Inson hayoti davomida doim kun kechirishi avlodni davom ettirishi uchun muayyan va ijodiy kasb bilan faoliyat yuritib boradi, bu esa shaxs va kasb o`rtasidagi munosabatlar sohasi, pragmatik yo'naltirilgan shaxs hususiyatlari , ular na bilim,na ko'nikma, va na tajriba sifatida alohida kamaytirilmaydi, balki sinkretik bir butun bo'lib ishlaydi. Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jihatidan o'zini topa olish uchun o'z ustida ishlashi va turli masalalarni hal qilish uchun bor kuchini sarflash, kasbiy faoliyatiga halol va sofdil bo'lib shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an'analarni o'zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko'rsatish, kasbiy jihatdan o'zini anglash imkon yaratish lozim. Yorqin misol keltirilganda ulkan kompaniya asoschilari rivojlanmayotgan bo'limlarda ishchilarning ko'zboyamachilik, ta'magirlilik xiyonat,o'z kasbiga yengil e'tibor qilishni oldini olish uchun jazolashni mukofotli yo'lini o'ylab topishdi. Bu esa ishga kech qolish, kamomad, inqiroziy extimollarni ham yo'q bolishiga olib keldi.

Bizning ongli tarzda fikr yuritishimiz ijodiy va kasbiy faoliyatimizda kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo'lgan jihatlarini mustaqil anglab olishi, shuningdek ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy

vaziyatda bajariladigan ishidan ma'no topishi, kasbiy jihatdan o'zini asray olishi uning kasbida rivojlanishning mumim ustuni bolib xizmat qiladi va uning asosi esa rostgoylik va halollik komillik darajasiga yetishi uchun xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiysi. -Toshkent.:o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002.
- 2.N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qoysinov. Mehnat ta'lifi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik T .:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 bet.
- 3.Jo'raev R.X., Tolipov O 'Q., Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilami kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari.
- 4.Sharipov Sh.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilami kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiy. -T.:Fan. 2004. 120 b
- Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash.
- 5.Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: Fan, 2006.

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)